

QANDLI DIABET BILAN OGRIGAN BEMORLARDA OSHQOZON OSTI BEZI O'SMALARINI ANIQLASHDA KT DIAGNOSTIKA ROLI

Azizbek Baratov Akbar o'g'li

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Uzbekiston, Toshkent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18886131>

Annotatsiya: Oshqozon osti bezi o'smalari onkologik kasalliklar tarkibida yuqori o'rinlardan birini egallaydi va ko'pincha qandli diabet bilan birga kechadi. Ayniqsa 2-tip qandli diabet bilan yangi tashxis qo'yilgan bemorlarda oshqozon osti bezi o'smalarini erta aniqlash muhim klinik ahamiyatga ega.[1,2] Qandli diabet oshqozon osti bezi o'smalarida [3]UTT va Kompyuter tomografiya (KT) o'smaning Oshqozon osti bezining umumiy tuzilishini lokalizatsiyasi, o'lchami, invaziyasi va metastazlarini aniqlashda asosiy diagnostik usullardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Qandli diabet fonida bemorlarda oshqozon osti bezi o'smalarini aniqlashda (KT)kontrast diagnostik imkoniyatlarini baholash.

Material va usullari. Tadqiqotga 2022–2025 yillar davomida tekshiruvdan o'tgan 98 nafar bemor kiritildi. Ularning 62 nafari erkak (63,3%), 36 nafari ayol (36,7%) bo'lib, o'rtacha yoshi $59 \pm 8,4$ yilni tashkil etdi. Bemorlarning 74 nafarida (75,5%) 5yildan ortiq 2-tip qandli diabet bilan og'rikan bo'lib, 24 nafarida (24,5%) diabet yaqinda aniqlangan. RIO va RIATM oshqozon osti bezi o'smalari bulimi.Barcha bemorlarga 64 kesimli spiral KT kontrastli tekshiruv o'tkazildi.Kontrast modda vena ichiga 1,5 ml/kg hisobida yuborildi. Baholash mezonlari: o'sma o'lchami, zichligi (HU), chegaralari, asosiy tomirlarga invaziya, limfa tugunlari va uzoq metastazlar mavjudligi.

Natijalar. KT natijalariga ko'ra bemorlarning 81 nafarida (82,6%) oshqozon osti bezining adenokarsinomasi, 9 nafarida (9,2%) neyroendokrin o'sma, 8 nafarida (8,2%) kistoz o'sma aniqlangan.O'smalarning o'rtacha o'lchami $3,8 \pm 1,2$ smni tashkil etdi. 67 holatda (68,3%) o'sma bez bosh qismida, 21 holatda (21,4%) tana qismida, 10 holatda (10,3%) dum qismida joylashgan.

Asosiy qon tomirlariga invaziya 39 bemorda (39,8%), regional limfa tugunlari kattalashuvi 44 bemorda (44,9%), jigar metastazlari 26 bemorda (26,5%) aniqlangan. Qandli diabet yangi aniqlangan bemorlarda o'smalar ko'proq bez bosh qismida joylashgani (72%) va o'rtacha o'lchami $2,9 \pm 0,8$ sm bo'lgani qayd etildi. KT usulining sezgirlikligi 91,2%, spetsifikligi 88,5% va umumiy aniqligi 89,7% ni tashkil etdi.

Xulosa. (KT)Kontrast qandli diabet bilan kelgan bemorlarda oshqozon osti bezi o'smalarini erta aniqlash va bosqichlashda yuqori diagnostik ahamiyatga ega. Birlamchi tashxislangan 2-tip diabet holatlarida KT tekshiruvini o'tkazish o'smani erta bosqichda aniqlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv davolash taktikasini to'g'ri rejalashtirish va prognozni yaxshilashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Andersen DK, et al. Diabetes, pancreatogenic diabetes, and pancreatic cancer. Diabetes. 2017
2. Pannala R, et al. New-onset diabetes: a potential clue to pancreatic cancer. Lancet Oncol. 2009..
3. Chari ST, et al. Probability of pancreatic cancer following new-onset diabetes. Gastroenterology. 2005.